

Xalq deputatlari So'x tumani Kengashi qarori 2023-yil 4-choragida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar hisoboti to'g'risida

e-qaror.gov.uz

VI-83-12-11-159-K/24



XALQ DEPUTATLARI SO'X TUMAN KENGASHI QARORI

2024 - yil 16 - fevral

VI-83-12-11-159-K/24

So'x tumani hokimligi

2023-yil 4-choragida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar hisoboti to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-avgustdagi "Byudjet ma'lumotlarining ochiqligini va byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3917-sonli hamda 2021-yil 13-apreldagi "Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli Qarorlariga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli Qarori, shu bo'yicha xalq deputatlari So'x tumani Kengashining 2022-yil 19-fevraldagi "Mahalliy byudjet mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi VI-49-19-11-159-K/22 sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy Nizomning 27,29-bandlari ijrosini ta'minlash maqsadida xalq deputatlari Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari So'x tumani Kengashining 2022-yil 19-fevraldagi "Mahalliy byudjet mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi KQ-49-19-11-159-K/22-sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy Nizomning 27-bandiga asosan 2023-yilda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar yuzasidan So'x tumani iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i **Z.Iskandarov**ning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror bilan quyidagilar:

2023-yil IV-choragida "Tashabbusli byudjetlashtirish" jarayoni natijalari bo'yicha ma'lumotlar 1 va 2-ilovaga muvofiq;

2023-yil IV-choragida "Fuqarolar tashabbusi" jang'armasi mablag'larining shakllanishi to'g'risidagi ma'lumotlar 3-ilovaga muvofiq;

2023-yil IV-choragida "Fuqarolar tashabbusi" jang'armasidan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g'olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (**Z.Iskandarov**), Kambag'allikni qo'llab quvatlash bo'limi (**G.Melnikov**), Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi (**I.Mastonov**) hamda mahalla fuqarolari yig'inlari bilan birgalikda avgust oyida o'tkaziladigan "Tashabbusli byudjetlashtirish" jarayoniga keng jamoatchilikni jalb etish bo'yicha targ'ibot tashviquot ishlarini olib borsinlar.

4. Tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (**Z.Iskandarov**), tuman hokimligi axborot xizmati (**A.Juraev**) Tashabbusli byudjetlashtirish natijalari bo'yicha ma'lumotlarni keltirilgan ilovalarga muvofiq shakllarda "Ochiq byudjet" axborot portali hamda hokimlikning rasmiy veb-saytlariga joylashtirish va har chorak yakunlariga ko'ra, keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasiga qadar joylashtirib borish vazifalari yuklatilsin.

5. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining **Mahalliy byudjet**,

iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (N.Sadirkobov), ijrosini ta'minlash moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman hokimining birinchi o'rinbosari (I.Tojiboev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



S.Sayidmusaev

Xalq deputatlari So'x tuman
Kengashining
2024-yil 16-fevraldagi
VI-83-12-11-159-K/24-son
qaroriga
1-ilova

Tashabbusli byudjetlashtirish natijalari bo'yicha

MA'LUMOT

So'x tumani

01.01.2024 y

T/r	Ko'rsatkich nomi	Summa
		(ming so'm)
1	chorak boshiga qoldiq	340 647,9
2	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga o'tkazilgan mablag'lar*	7 106 629,9
3	Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g'olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar**	6 740 000,0
3.1.	Tadbirlarni amalga oshirayotgan pudratchi tashkilotlarga bajarilgan ishlar uchun to'langan mablag'lar	3161761,0
3.2.	Tadbirlarni moliyalashtirishga ajratilgan, biroq pudratchi tashkilotlarga to'lab berilmagan qoldiq mablag'lar	3 168501,0
4	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasidagi qoldiq mablag'lar	378 321,6

Xalq deputatlari So'x tuman
Kengashining
2024-yil 16-fevraldagi
VI-83-12-11-159-K/24-son
qaroriga
2-ilova

Tashabbusli byudjetlashtirish natijalari bo'yicha

MA'LUMOT

So'x

01.01.2024 y

T/r	So'x tumani Bajarilgan tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni	ming.so'm		
			ko'rsatkichlar o'lchov birligi	miqdori	sarflangan mablag'lar
1	Hududiy ichki yo'llar		umumiy uzunligi		
2	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash	2	soni	2	1 200 000,0
3	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	1	soni	1	1 320 000,0
4	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	1	soni	1	1 320 000,0
5	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	1	soni	1	700 000,0
6	Oqova suvi ta'minatini yaxshilash	1	umumiy uzunligi	3	1 000 000,0
7	Ko'cha chiroqlari,siyo-ochlar hamda transformator o'rnatish	1	Simyog'ochlar soni	60	1 200 000,0
8	Obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish		tadbirlar soni		
9	Boshqa tadbirlar		soni		
jami		7	X	X	6 740 000,0

Xalq deputatlari So'x tuman
Kengashining
2024-yil 16-fevraldagi
VI-83-12-11-159-K/24-son
qaroriga
3-ilova

Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirilishi yuzasidan

MA'LUMOT

So'x tumani

01.01.2024 y holatiga

T/r	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga yo'naltirilishi lozim bo'lgan mablag'lar				Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga haqiqatda o'tkazilgan mablag'lar	Farqi	Izoh
		1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak			
1	Tuman (shahar) byudjetining tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 5 foiz qismi miqdorida ajratiladigan mablag'lar	3 139 626,0		3 144 563,0		6 284 189,0	0,0	
2	Tuman (shahar) byudjetining qo'shimcha manbalarining 30 foiz miqdorida ajratiladigan mablag'lar	75 600,0	59 500,0	46389,0		181 489,0	0,0	
2.1.	Shu jumladan	304 000,0				304 000,0	0,0	
2.2.		75 600,0	59 500,0	46389,0		181 489,0	0,0	
2.3.						0,0	0,0	
2.4.						0,0	0,0	
2.5.						0,0	0,0	
3	Jami ajratiladigan mablag'lar	3 519 100,0	59 500,0	3 144 563,0	0,0	6 769 678,0	0,0	

Xalq deputatlari So'x tuman Kengashining
2024-yil 16-fevraldagi
VI-83-12-11-159-K/24-son qaroriga
4-ilova

Fuqarolar tashabbusi jamg'armasidan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g'olib deb topilgan) tadbirlarni
moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar yuzasidan

MA'LUMOT

So'x tumani

01.01.2024 y

T/r	Tadbirning xos raqami (ID)	Jami to'plangan ovozlarning soni	shundan			Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)	Tadbirning moliyalashtirilishi (ming so'm)						
			onlayn ovozlarning soni	oflayn ovozlarning soni	SMS orqali		Tadbirni moliyalashtirish uchun ochilgan hisobvaraqlar	Tadbirning fuqaro tomonidan kiritilgan dastlabki qiymati	Tadbirni amalga oshirish qiymati*	Ajratilgan mablag'lar	Bajarilgan ishlar uchun to'lab berilgan mablag'lar	Iqtisod qilinish, jamg'armaga qaytarilgan mablag'	Qoldiq mablag'lar
1	12475011	2460	0	0	2460	3-sonli maktab hududiga zamonaviy stadion qurish	401722860302267092100072001	500 000,0	500 000,0	500 000,0	426 351,9	0	23 873,5
2	121181011	1578	0	0	1578	Istiqlol MFY Obodlik, Shifokor, Kaxramon va Baxt kuchalariga 120 dona betonli simogochlar, 6km elektr tarmog'i va 2ta transformator urmatishi	401722860302267049803098001	1 200 000,0	1 200 000,0	1 200 000,0	1 061 725,8	0	138 274,2
3	12484048	1522	0	0	1522	Navobod MFY Axil kuchasining 1km ariklariga betonli latoklar urmatish.	401722860302267049803170001	600 000,0	1 000 000,0	1 000 000,0	878 834,9	0	121 165,1
4	118993011	970	0	0	970	Rovon MFY da joylashgan markaziy uyigox futbol maydonini ta'mirlash	401722860302267083610205001	700 000,0	700 000,0	700 000,0	644 371,9	0	32 704,0
5	31290431011	3520	0	0	3520	3-sonli MTM-ni joriy ta'mirlash hamda quyosh panellari urmatish	401722860302267091100072001	1 320 000,0	1 320 000,0	1 320 000,0	251 143,9	0	1 068 856,1

6

6	31257360011	3177	0	0	3177	29-sonli maktabga yozgi sport maydonchasi, sportzalini rekonstruksiya qilish hamda 10 kilovatli gibrid quyoshpanellari o'rnatish.	401722860302267092100072002	1 032 000,0	700 000,0	700 000,0	26 120,9	0	673 879,1
7	31260930011	2626	0	0	2626	Yangiariq MFY da joylashgan tibbiy xizmat uyini joriy tamirlash va quyosh panel urmatish	401722860302267072110054001	1 320 000,0	1 320 000,0	1 320 000,0	210 249,1	0	1 109 750,9
Jami:								6 672 000	6 740 000	6 740 000	3 925 180,3	0	2 474 819,7

7